

## MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDA SOLIQ SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI

**Sharopov Dilshodjon Raxmatullayevich** –

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, mustaqil tadqiqodchisi*

**Annatsiya:** Maqolada mahalliy budjet daromadlari manbasini shakllantirish va soliq solish bazasini kengaytirish jarayonida soliq, qonunchilikka rioya qilgan holda soliq samaradorligini oshirish mexanizmlariga qaratilgan.

**Kalit soʻzlar:** mahalliy budjet, mahalliy soliq va yigʻimlar, soliq maʼmuriyatchiligi, soliq samaradorligi mexanizmi.

**Аннотация:** В статье рассматриваются механизмы повышения налоговой эффективности при формировании источников местных бюджетных доходов и расширении налоговой базы, с соблюдением налогового законодательства.

**Ключевые слова:** местный бюджет, местные налоги и сборы, налоговое администрирование, механизм налоговой эффективности.

**Abstract:** The article focuses on the mechanisms for increasing tax efficiency in the process of forming local budget revenue sources and expanding the tax base, while adhering to tax legislation.

**Keywords:** local budget, local taxes and fees, tax administration, tax efficiency mechanism.

Mahalliy budjetlarning barqaror moliyaviy asosini taʼminlashda soliq tushumlarining samaradorligi muhim oʻrin tutadi. Soliq samaradorligini oshirish uchun, avvalo, soliq maʼmuriyatchiligini takomillashtirish, soliq bazasini





kengaytirish, soliq solish ob'ektlarini aniq hisobga olish va noqonuniy iqtisodiy faollikka qarshi qat'iy choralar ko'rish zarur.

Shuningdek, mahalliy soliqlar va yig'implarning yig'imdarligini oshirish, elektron axborot tizimlari orqali soliq to'lovchilarni monitoring qilish hamda maxalliy hokimiyatlar va soliq organlari o'rtasida samarali hamkorlik mexanizmlarini joriy etish talab etiladi. Soliq siyosatining hududiy xususiyatlarini hisobga olgan holda, soliq imtiyozlarini qayta ko'rib chiqish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi tarzda qayta tarhlash ham ushbu jarayonning muhim qismi hisoblanadi.

Soliq qonunchiligiga asosan mahalliy soliqni mahalliy budjet daromadlari tarkibida soliq tushumlarining ko'paytirish uchun yangi soliq bazalarini topish lozim.

Respublikada mol-mulk solig'i bilan bog'liq muammolarini shartli ravishda bir necha guruhlariga bo'lish kerak. Bu ommaviy baholashning hal qilinmagan masalalari, eng muhimi, mulk huquqi, er va mulkni ro'yxatdan o'tkazish, mol-mulk solig'ini boshqarish tizimidagi kamchiliklar va ularning to'lanishi ustidan nazorat tizimining isloh qilish zarur. Mahalliy hokimiyat organlari tomonidan hududdagi to'liq mulklarni inventarizatsiya qilish orqali mol-mulk ro'yhatdan o'tkazish bilan soliq bazasini kengaytirish mumkin.

O'zbekistonda mol-mulk solig'i sohasidagi asosiy muammolar ommaviy baholashning etarli darajada yo'lga qo'yilmagani, mulkni ro'yxatdan o'tkazish tizimining samarasizligi va nazorat mexanizmlarining zaifligi bilan bog'liqdir. Soliq bazasini kengaytirish uchun mahalliy hokimiyatlar tomonidan mulk ob'ektlarini to'liq inventarizatsiya qilish va ro'yxatdan o'tkazish talab etiladi.

Biroq, ro'yxatdan o'tkazish jarayonining qiyin va xarajatli ekanligi, baholash xizmatida malakali kadrlar etishmasligi bu jarayonni sustlashtirmoqda. Shu bilan birga, amalga oshirilayotgan soliq siyosati qurilayotgan ob'ektlarning



ko'p qismi soliqdan tashqari qolishiga olib kelmoqda, bu esa soliq tizimini bozor iqtisodiyoti talablariga moslashtirish zaruratini yanada dolzarb qiladi.

Soliq yig'ish tizimini yanada soddalashtirish maqsadida yaqinda mahalla ettiligi instituti joriy etildi. Amaldagi Soliq kodeksiga muvofiq, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlariga soliq yig'ish vakolati berilgan bo'lib, bu vazifa mahalla ettiligi orqali amalga oshirilmoqda. Ilgari mahalliy ma'muriyatlar tarkibida aholi bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot qiladigan soliq xodimlari faoliyat yuritgan. Hozirda esa "mahallabay" tamoyili asosida soliq yig'ish bir nechta mahallalarga xizmat ko'rsatuvchi soliq xodimlari tomonidan olib borilmoqda. Bu tizim har bir tumandagi mahallalarni belgilangan dastur asosida xizmat hududlariga birlashtirish orqali amalga oshirilmoqda.

Soliq organlari soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalangan budjetga soliq qarzlarini faqat mahalliy soliqni samarali boshqarish orqali kamaytirishga intilishadi. Bundan tashqari, soliq organlari hozirda mahalliy soliqni undirish mexanizmini moliyaviy jihatdan mustahkamlash zarur.

Shu bilan birga, Respublikada deyarli barcha soliqni to'lash uchun mobil ilovalardan foydalanish ham rivojlanib bormoqda. Bunda bir vaqtning o'zida soliq to'lash mexanizmi bank tizimidan foydalanishni belgilaydi.

Qishloq joylarda yashovchi mahalliy aholi soliq xizmatidan to'lov xabarnomasini olgandan keyin, uni to'lash uchun tuman markaziga borib to'lar edi. Yuqorida aytilganlarning barchasini hisobga olgan holda, mahalliy budjetning xavfsizligi masalalarini echish maqsadida mobil ilovalar orqali to'lash joriy etildi.

Soliq tizimini soddalashtirishda "Soliq – iqtisodiyot tayanchidir" tamoyilini amalda qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir soliq manbai o'z darajasidagi budjetga to'liq tushishi kerak bo'lib, daromadlarni qayta taqsimlash markazlashtirilgan o'tkazmalar orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.



Mahalliy soliqlarni optimallashtirish maqsadida ba'zi mintaqaviy soliq turlarini yagona mahalliy soliqlarga integratsiya qilish taklif etiladi. Xalqaro amaliyotga asosan, shaxsiy daromad solig'ini mahalliy soliq sifatida belgilash maqsadga muvofiq, chunki u fuqarolarning yashash joyida to'lanishi orqali budget xizmatlarining manzilli moliyalashuvini ta'minlaydi.

Mahalliy budgetlarni rivojlantirishda tabiiy resurslardan foydalanish bilan bog'liq soliqlarning ahamiyati ortib bormoqda. Bu turdagi soliqlarni mahalliy budgetga biriktirish va ularning fiskal rolini kuchaytirish tavsiya etiladi.

Shuningdek, mahalliy budgetlarni subsidiyalarga kamroq bog'liq qilish maqsadida tartibga soluvchi soliqlarda tabaqalashtirilgan standartlardan keng foydalanish samarali yo'l hisoblanadi.

Ayrim hududlarda yig'iladigan va mamlakatimizning budgetiga o'tkazilishi kerak bo'lgan soliq to'lovlarining bir qismini mahalliy budgetga o'tkazish subsidiyalarga qaraganda ancha samarali hisoblanadi. Ushbu yo'nalish mahalliy hokimiyatlarni soliqni iloji boricha to'liq yig'ishga undaydi, ularning soliq sohasidagi mas'uliyati va tashabbuskorligini oshiradi va moliyaviy oqimlarni kamaytirishga imkon beradi.

Mahalliy budgetlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda er solig'i muhim manba hisoblanadi. Biroq, hozirgi vaqtda er solig'idan imtiyozli va ozod etilgan holatlar ko'lami juda keng bo'lib, bu uning budgetdagi ulushini keskin pasaytiradi. Shu bois, birinchi navbatda er solig'i bo'yicha imtiyozlarni qayta ko'rib chiqish va ularni qisqartirish zarur.

Y.V. Bushmin ta'kidlaganidek, davlat ham mahalliy hududlardagi erlar uchun mahalliy hokimiyat organlari tomonidan belgilangan tartibda soliq to'lashi lozim. Yer solig'i bazasini adolatli va samarali shakllantirish uchun Yer kodeksi asosida erlarning kadastr bahosini muntazam yangilab borish, tasdiqlangan bazaga asoslangan qarorlar qabul qilish muhim ahamiyat kasb etadi.



Iqtisodchi Mark Skousen er rentasi — ya'ni davlat ehtiyojlari uchun er qiymatidan soliq olishni qo'llab-quvvatlaydigan soliq modelini asoslab bergan. Uning fikriga ko'ra, er qiymatini saqlab qolgan holda rentani soliqqa tortish iqtisodiy adolatni ta'minlaydi.

Globalashuv sharoitida respublikada er uchastkalarini inventarizatsiya qilish va ularning kadastr qiymatini aniqlash orqali yangi, asosli soliq bazalarini yaratish mumkin. Professor T.Malikov ta'kidlaganidek, zamonaviy soliq konsepsiyalari resurs solig'ini davlat budjeti uchun ustuvor manba sifatida ko'radi. Uningcha, daromad va foydadan olinadigan soliqlarni qisqartirish, ularni resurs va mulkka asoslangan soliqlar bilan almashtirish iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkidan olinadigan soliq bazasini kengaytirish esa mulkni to'liq va aniq ro'yxatga olishga bog'liq. Hozirda texnik inventarizatsiya jarayoni deklarativ xarakteri bilan cheklangan bo'lib, bu etarli aniqlikni ta'minlamaydi.

Ko'chmas mulk kadastrini yangilash va bozor asosida baholash usullarini ishlab chiqish jarayonlari amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, ushbu jarayonlarni tezlashtirish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, soliq ma'murchiligini optimallashtirish mahalliy soliq tizimini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega. Soliq ma'murchiligi shartlari, shuningdek, soliq to'lovchilarga yuklanadigan ma'muriy yukni minimallashtirish maqsadida mahalliy soliqlarni maksimal darajada undirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Soliq organlari va mahalliy hokimiyatlar o'rtasida ma'lumot almashish va hamkorlikni mustahkamlash soliq ma'murchiligining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Agar soliq organlari zarur ma'lumotlarni taqdim etmasa, soliq bazasini kengaytirish qiyinlashadi.



Shu sababli, soliq organlari, mahalliy hokimiyatlar va moliya organlari o'rtasidagi hamkorlik, soliq to'lovchilarning madaniyatini shakllantirish va budget daromadlarini yaxshilashga yordam beradi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlardan soliqlarni undirish mexanizmida faqat hisobvaraqlar fakturalar asosida va bank hisob raqamlari orqali amalga oshirilsa, bank hisobraqamlari mavjud bo'lmagan jismoniy shaxslar tomonidan esa naqd pul shaklda yoki plastik kartalar orqali mobil ilovalardan foydalangan hoda to'lov qilish imkoniyatlari mavjud. Bu jarayonda aksariyat hollarda jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarga e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

Shuningdek, soliq to'lovchi jismoniy va yuridik shaxslarga soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish yuzasidan imkoniyatlarni berish orqali soliq to'lovchilar tomonidan soliq majburiyatlarini to'lov mexanizmlari orqali undirish imkoniyati bo'la turib, to'lovlarni vaqtida bajarishga sharoit yaratilmas ekan, soliq to'lovchilarda boqimanda kayfiyati saqlanib qolaveradi.

Mahalliy soliqlarni undirish mexanizmining samaradorligi soliq to'lovchilarni turli pog'onalarga ajratishga bog'liq. Bu mexanizm mahalliy budget daromadlarini oshirishga xizmat qiladi. Mahalliy soliq va yig'imlarning undirilishiga ta'sir etuvchi omillar, asosan, yuridik va jismoniy shaxslardan olingan soliqlar bo'yicha yig'iluvchanlik darajasining pasayishiga olib keladi, bu esa davlatning majburiyatlarini o'z vaqtida bajara olmasligiga sabab bo'ladi.

To'lanmagan soliqlar hududning iqtisodiy ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi, shuningdek, zamonaviy axborot tizimlaridan foydalanish soliq undirishni samarali tashkil qilishda muhimdir. Agar xo'jalik yurituvchi subektlar soliq majburiyatlarini bajarishda qiyinchilikka duch kelsa, soliq qarzдорligi yuzaga kelishi mumkin, bu esa to'lov qobiliyatini pasaytiradi.

Mamlakatimizda mahalliy budget tizimi bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar hali kam. Ularning aksariyati biriktirilgan soliq turlariga bog'liq bo'lib, funksional va tizimli yondashuvlar juda kam tadqiq qilingan. Bu





tadqiqotlarda soliqlarning shakllari, usullari, elementlari va ob'ektlariga tizimli ravishda yondashish muammo bo'lib qolmoqda.

Har bir hududga o'z vazifalarini bajarish uchun moliyaviy resurslarni ta'minlashda soliqlar va budjetlararo transfertlarni taqsimlash jarayoni iqtisodiy munosabatlardan kelib chiqadi. Mazkur jarayonda hududlarning daromadlarini tenglashtirish maqsadida moliyaviy resurslar qayta taqsimlanadi.

Soliqlarni budjet tizimi darajalari bo'yicha taqsimlash zarur, chunki mahalliy soliqlar davlat soliqlariga nisbatan muhim rol o'ynaydi. Mahalliy soliqlar, davlat xizmatlarida imtiyozlar tamoyiliga asoslanib, mahalliy hokimiyat organlari tomonidan mahalla aholisi manfaatlarini hisobga olib ishlatilishi kerak. Bu erda, mahalliy hokimiyat organlari mahalla aholisi manfaatlarini ko'zlab, rezidentlar hisobidan tushadigan daromadlar miqdoridan moliyalashtirilishi zarur.

Mahalliy hokimiyat organlari uchun mahalliy budjet daromadlarini shakllantirish vositalari sifatida mahalliy soliq tushumlari barqaror bo'lishi kerak. Buning natijasida mahalliy daromadlarni shakllantirishda soliqlar yuqori ahamiyatga ega ekanligi ma'lum. Ammo, mamlakatimizda mahalliy soliqlarni shakllantirish amaliyoti, nazariy ishlanmalar bilan o'zaro zid keladi, bu esa soliqqa tortish sohasidagi muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Soliq qonunchiligining mahalliy soliqlar, ayniqsa mol-mulk solig'i bilan bog'liq muammolari amaliy jihatdan ko'p uchraydi. Ushbu muammolarning birinchi darajali masalasi — ommaviy baholashning hal qilinmagan masalalari, er va mol-mulklarga bo'lgan huquqlarni ro'yxatga olish, mulk solig'ini boshqarish tizimidagi nuqsonlar va ularning to'lanishini nazorat qilish mexanizmini takomillashtirish zaruriyatidir.

Mahalliy hokimiyat organlari tomonidan inventarizatsiya o'tkazish va mulk registrklarini joriy qilish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonning asosiy muammosi, shubhasiz, mulkni ro'yxatga olishdagi protsessual murakkabliklar, hujjat ishlari va vaqt talab etishi, shuningdek moliyaviy mexanizmlardir.





Soliq solinadigan bazani aniqlashda davlat tashkilotlarining xizmatlarining yuqori narxi va ularning xodimlari sonining etishmasligi asosiy muammo hisoblanadi. Bu omillar soliq ma'muriyatini samarali amalga oshirishni qiyinlashtiradi.

Mol-mulkni ro'yxatga olish xizmatlarini ko'rsatadigan tijorat tuzilmalari va davlat muassasalari o'rtasidagi aloqalar, xususiy firmalarning xizmatlariga talabni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'rsatadi. Bu, shubhasiz, mahalliy soliqlarning samarali undirilishini va ularning ta'sirini kuchaytirishga yordam beradi.

Soliq organlari tomonidan amalga oshiriladigan soliq to'lovchilarning umumdavlat soliqlari orqali konsolidatsiyalangan budjet oldidagi qarzlarini qoplash harakati ayni vaqtda mahalliy soliqlarning undirilishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mahalliy soliqlarning moliyaviy jihatdan mustahkamlanmaganligi mahalliy davlat organlariga soliqlarni aniq va samarali tarzda undirishda kata muammo tug'diradi.

Mahalliy budjetlarning daromadlarini ta'minlashga echim izlash zarur. Mahalliy soliqlar va yig'implarni belgilash tamoyillarini o'rganish va takomillashtirish bu muammolarni hal qilinishida muhim qadam bo'ladi.

Mahalliy budjetlarga subsidiyalarni qisqartirishning yana bir muhim yo'nalishi — subsidiyalash mexanizmi o'rniga tartibga soluvchi soliqlar bo'yicha tabaqalashtirilgan standartlardan keng foydalanish hisoblanadi. Bu yo'nalish mahalliy soliqlarning samarali undirilishini ta'minlashga yordam berishi mumkin, chunki tabaqalashtirilgan standartlar soliq to'lovchilarning imkoniyatlariga qarab, soliqlarning bir xil bo'lishiga erishishga ko'maklashadi.

Yer va mol-mulk solig'ini undirishning hozirgi tartibini takomillashtirishda hududiy hokimiyat organlari va mas'ul idoralarining axborot tizimlari o'rtasidagi integratsiya muhim ahamiyatga ega. Bu integratsiya soliqlar to'lanmagan holda



vaqt olishni va davlat organlari tomonidan vaqt o'tkazilgan axborotni samarali ishlashni taqozo etadi.

To'lanmay qolgan soliqlarni zamonaviy axborot texnologiyalari orqali hududiy xokimlik idoralari bilan integratsiya qilish, o'zaro ma'lumot almashinuvini tezlashtiradi va soliq ma'muriyatini samarali tashkil qilishga yordam beradi.

Mahalliy budjet solikli daromadlarini takomillashtirish mexanizmlariga quyidagilar kiradi:

- Mahalliy budjetlarga beriladigan budjetlararo transfertlarni qisqartirish va daromadlarni sarflanishini nazorat qilish;
- Mahalliy hokimiyatlar bilan hamkorlikda mahallabay ishlash tizimini isloh qilish orqali soliq solish bazasini kengaytirish;
- Hududlarda yangi tashkil etiladigan chet el ishtirokidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarni soliq va to'lovlarini hudud mahalliy budjet daromadlar hisobiga qoldirish;
- Hududlarda mahalliy budjet soliq solish manbalarini kengaytirish;
- Xo'jalik yurituvchi subyektlarni soliq yukini kamaytirish orqali tabaqalashtirilgan soliq stavkalarini joriy etish.

Soliq tizimini isloh qilish bilan birga, mahalliy budjet daromadlar bazasini va ularni undirish tizimini mustahkamlashda nazorat qilish, rag'batlantirish va tabaqalashtirilgan soliq stavkalari joriy qilish muhim rol o'ynaydi. Bu choralar soliqlarning aniq va samarali yig'ilishiga, shuningdek, mahalliy iqtisodiy faoliyatning jadal rivojlanishiga xizmat qiladi.

Mahalliy budjet daromatlari soliq solish bazasining samaradorlik ko'rsatkichlariga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

- ❖ Soliqlardan qochishga qarshi amalga oshiriladigan chora-tadbirlar;
- ❖ Narx belgilash qoidalari, buning orqali narxlarning to'g'ri ko'rsatkichlari belgilanadi;



- ❖ Davlatlararo va xalqaro shartnomalar va bitimlar, ular soliq yuklamasini to'g'ri taqsimlashga yordam beradi;
- ❖ Tovarlarning nomlanishi va tasnifi, bu soliq bazasini to'g'ri shakllantirishda muhimdir;
- ❖ Mahsulot va xizmat qiymati, ularning bozordagi pozitsiyasi va soliqqa tortish qoidalariga ta'siri;
- ❖ Mahsulotning sifat ko'rsatkichlari, ular ham soliq bazasining tarkibiga ta'sir ko'rsatadi;
- ❖ import va eksport mahsulotlari narxi kabi omillar ta'sir ko'rsatadi.

Mahalliy soliq tizimini isloh qilishdagi yaqin kelajakdagi asosiy maqsad, avvalo, mahalliy soliqning isloh qilinishi emas, balki uning hamjamiyat va budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish tizimiga integratsiyalashuvi, mahalliy davlat hokimiyati va vakolatlarni taqsimlash sohasidagi islohotlar, shuningdek, budjetni qayta qurish bo'lishi lozim. Soliq islohoti o'z-o'zidan yoki alohida tartibda amalga oshirilishi kerak emas, balki ijtimoiy va iqtisodiy islohotlar jarayonlariga qaratilgan tartibda amalga oshirilishi zarur. Bu ishlarning natijasida soliq tizimi samarali, aniq va adolatli bo'lib, iqtisodiy o'sishni va ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlashga xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi.- Toshkent: O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013-yil.
2. O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi O'RQ-1011-son Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 20- dekabr kungi oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi.
4. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. - Toshkent: O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami 2019-yil.



5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-iyuldagi PQ-4389-son «Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori.

6. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya Vazirligining rasmiy sayti <https://www.imv.uz/>.

7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi soliq qo'mitasining rasmiy sayti <https://soliq.uz/>.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi PF-6121-son «Resurs solig'i va mol- mulk solig'ini yanada takomillashtirish to'g'risida» Farmoni.